

## **ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Ashirbayeva Zamira Madullayevna**

**Sardoba tumani 12-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari,**  
**[maktabim12\\*sar@gmail.com](mailto:maktabim12*sar@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567429>**

Annotatsiya: darslarda multimedia vositalaridan foydalanish, multimedia ilovalarda berilgan animatsiya, multfilm, test topshiriqlari, mantiqiy topshiriqlar, video materiallar, didaktik o'yinlar o'quvchiga muhimligi.

Kalit so'zlar: multimedia, didaktik o'yinlar, foydalanuvchi interfeysi.

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bu ma'suliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'g'ri anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanishlarini taqazo etadi. Bugungi ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunnig muhim vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin fikrlaydigan, erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir.

O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashga innovatsiya faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun yuqori sinf o'qituvchisi zamonaviy o'qitish metodlarni va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilmog'i lozim.

Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish ham bir qancha afzalliklarga ega. Multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Multimedia bir vaqtning o'zida turli ko'inishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutgan foydalanuvchi interfeysining konsepsiyasi.

Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an’anaviy va original turlari asosida o’quv materiallarini o’quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko’rinishidir. Multimedialardan dars jarayonida foydalanish bir qancha imkoniyatlarni beradi:

- o’quvchilarda fanga qiziqish uyg’otadi;
- mavzuni tez tushunib olish, berilayotgan materialni chuqurroq va mukammalroq o’zlashtirish;
- vaqtni tejash va vaqtdan unumli foydalanish;
- axborotlarni tezkor olish;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanib, kerak bo’lganda amaliyotda qo’llash;
- darsni zamonaviy tarzda modellashtirish;
- fan bo’yicha qo’shimcha ma’lumot, axborotlarga ega bo’lish kabi bir qancha imkoniyatlarni beradi.

Ta’limda yuqori sinflar uchun yaratilgan multimedia ilovalar biz pedagoglar uchun juda katta imkoniyat eshiklarini ochdi. Multimedia ilovalarda berilgan animatsiya, multfilm, test topshiriqlari, mantiqiy topshiriqlar, video materiallar, didaktik o’yinlar, lug’at ishi, dam olish daqiqasi uchun mo’ljallangan materiallar, qo’shiqlar o’quvchilarga nafaqat puxta bilim beribgina qolmay, ularda mustaqil fikrlash va mustaqil ishlash malakasini shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, o’quvchilarning ijodiy fikrlash doirasini rivojlantirish, vatanparvarlik va milliy g’ururni shakllantirish, ona vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, tabiatga ongli munosabatni tarkib toptirishga yordam beradi.

Yuqori sinf o’qituvchisi ta’limning davlat ta’lim standarti bo’yicha o’quvchilarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o’z-o’zini anglash salohiyatini shakllantirishga, moddiy borliq go’zalliklarini his eta olishga o’rgatish, tafakkur qilish qobiliyatini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o’zgarlar fikrini anglash, o’z fikrini ravon bayon qila olish ko’nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda elektron darsliklar, multimedia ilovalar o’qituvchiga yaqin ko’makdoshdur.

Shu o’rinda buyuk olim Konfutsiyning “Aytib ber-men unitaman, ko’rsat-tushunaman, bu narsani o’zim bajarishim uchun sharoit yarat va men o’rganaman” degan ta’limotiga nazar tashlaydigan bo’lsak, o’z tajribamdan shunga amin bo’ldimki, o’quvchi eshitsa 60%, eshitsa va ko’rsa 80%, eshitsa,

ko'rsa va bajarsa 100% bilimga ega bo'lar ekan. Buning zamirida o'qituvchining mahorati va albatta bilim darajasi alohida o'rin tutadi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.Sharq.1997.
2. Ziyomuhamedov.B, Abdullayeva Sh. Pedagogika.-T.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000 y.
3. Matematika.(5 sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) T-2014 y.
- 4.Muslimov N.A., et al. Technology for the formation of professional competence of teachers of vocational education G'G' Monograph.-T .: Science and Technology Publishing House, 2013. - 96 p.
- 5.Markova A. N. Psychology of teacher's work G' Book. for teachers. – M.: Enlightenment, 1993. – 190 p.